



# NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




(O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

3

9 226



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 673



Oilaviy korxonona

60



Unitar korxonona

4 889



Xususiy korxonona

21



Aksiyadorlik jamiyati


153



Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar - dekabr oylarida, birlikda)





# Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- yanvar holatiga koʻra, birlikda)


Jami faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **26,5 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat koʻrsatish  
 ■ Oʻrmon xoʻjaligi  
 ■ Baliqchilik xoʻjaligi



# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,5 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**179**

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**3 044**

Ishlab chiqarish sanoati

**10**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**40**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 273 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,5 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan):

- ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 17,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 93,0 %);

- suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning - 8,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.


# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Jami faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,4 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**776**

Binolar va inshootlar qurish

**108**

Fuqarolik obyektlarini qurish

**676**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra qurilish korxonalar va tashkilotlari soni 1 560 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga oshdi.

Jami qurilish korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan):

- binolar va inshootlar qurish - 4,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 49,7 % ni tashkil etadi);
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari - 10,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 43,4 % ni tashkil etadi);
- fuqarolik obyektlarini qurish - 27,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 6,9 % ni tashkil etadi) o'sishidir.


# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,7 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 193 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino - videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 16,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,6 %);

- axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 7,1 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 15,5 %);

- noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 30,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,5 %) o'sishidir.




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **29,8 %** ga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 627 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,8 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 36,6 % ga (jami savdodagi ulushi 75,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 5,3 % ga (jami savdodagi ulushi 16,8 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 32,2 % ga (jami savdodagi ulushi 7,9 %) o'sishidir.



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,8 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



•Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

274



•Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

6



•Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

13



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni 293 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,8 % ga oshdi.

Jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu:


- sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat- 12,8 % ga (jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi ulushi 93,5 %);

- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash- 20,0 % ga (jami sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi faoliyat 2,0 %) o'sishidir.



# Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,6 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ 2020- y. ■ 2021- y.

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra tashish va saqlash sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 625 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,6 % ga oshdi.

Jami tashish va saqlash sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili quruqlikdagi va quvur transportida o'tgan yilga nisbatan – 11,7 % ga (jami tashish va saqlash sohasidagi ulushi 82,2 %);

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati o'tgan yilga nisbatan – 40,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,5 %);

- pochta va kuryerlik faoliyati o'tgan yilga nisbatan – 66,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,0 %);

- havo transporti – 2,0 martaga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,3 %) o'sishidir.


# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,7 %** ga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



89

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 191

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 280 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu:

- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 8,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish sohasidagi ulushi 93,0 % );


- yashash bo'yicha xizmatlarda 15,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish sohasidagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 3 839 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 860 taga yoki - 28,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 673 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 740 taga yoki - 25,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yilning yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 939 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1361 taga yoki - 59,2 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 9 612 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 100 taga yoki - 28,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 226 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 977 taga yoki - 27,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 331 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 613 taga yoki - 20,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Tashkiliy – huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 5 457 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 590 taga yoki - 12,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 889 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 332 taga yoki - 7,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 949 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 923 taga yoki - 49,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

### **Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni** (2021 - yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 244 tani tashkil etib, ulardan 238 tasi yoki - 97,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 29 taga yoki - 13,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 37 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



## Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)






# Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni (2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Navoiy shahrida (24,0 %), Zarafshon shahrida (7,8 %), Karmana (15,7 %), Qiziltepa (12,6 %), Xatirchi (12,4 %), Navbahor (9,7 %), Nurota (7,5 %), Uchquduq (4,5 %), Konimex (3,8 %), Tomdi (2,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni (2020- yilning yanvar - dekabr oylarida, birlikda)

2020- yilning yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Navoiy shahrida (18,3 %), Zarafshon shahrida (9,1 %), Xatirchi (14,5 %), Karmana (13,5 %), Qiziltepa (13,3 %), Navbahor (9,3 %), Uchquduq (7,2 %), Nurota (6,6 %), Konimex (5,1 %), Tomdi (3,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Navoiy viloyati Statistik  
registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel: 79 223-62-47**